

# PROFILAKTIKA INSPEKTORINING OILADAGI ZO'RAVONLIK BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNING UMUMIY PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA AMALIY YONDASHUV

Haydarov Abbos Javlon o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20483079>

## **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada profilaktika inspektorining oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni oldini olishdagi faoliyati, xalqaro tajriba va hamkorlik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy zo'rvonlikning ijtimoiy sabablari, huquqiy oqibatlari hamda bu jarayonda profilaktika inspektorining tashkiliy, psixologik va huquqiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada mavjud muammolarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarning profilaktikasini samarali tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** profilaktika inspektori, oilaviy zo'rvonlik, huquqbuzarlik profilaktika, xalqaro tajriba, amaliy yandoshuv, xavfsizlik, hamkorlik.

## **Kirish**

Bugungi kunda oiladagi zo'rvonlik inson huquqlari va erkinliklariga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Oiladagi zo'rvonlikning turli ko'rinishlari, jumladan, jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy tazyiqlar jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha muhim huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, profilaktika inspektorlari ushbu jarayonning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi. Ularning faoliyatini takomillashtirishda xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy zo'rvonlik (intimate partner violence, IPV) hozirgi davrda global ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, uning oldini olish huquqni muhofaza qilish organlarining eng muhim ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Xususan, profilaktika inspektorlari — mahalliy hududlardagi huquqbuzarliklarning oldini olishga mas'ul bo'lgan vakillar — oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashning birinchi liniyasi hisoblanadi. So'nggi yillarda xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar profilaktika tizimining samaradorligi bevosita inspektorlarning kompetensiyasi, raqamlashtirish darajasi, davlatlararo tajriba almashuvi hamda tarmoqlararo hamkorlik sifatiga bog'liq ekanini ko'rsatmoqda.

## **Profilaktika inspektorining oiladagi zo'rvonlikning oldini olishdagi o'rni**

Profilaktika inspektori oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish;

nizoli oilalarni aniqlash va hisobga olish;

zo'rvonlik sodir etilish xavfi mavjud bo'lgan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish;

xotin-qizlar faollari, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

himoya orderlari ijrosini nazorat qilish;

aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.

Mazkur faoliyat zo'rvonlik holatlarining oldini olish va oilalarda sog'lom muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

## **Asosiy qism**

## 1. Oilaviy zo‘ravonlikning global statistik ko‘rinishi va dolzarbligi

1.1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO)ning 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra dunyo bo‘yicha har uchinchi ayol (30%) hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duch kelgan, 15–49 yoshdagi ayollarning 27% — sherigi tomonidan muntazam zo‘ravonlikka uchragan, 840 milliondan ortiq ayollar (UNFPA hisobi) turli shakldagi gender asosidagi zo‘ravonlik qurboniga aylangan.

1.2. Yevropa Ittifoqining Fundamental huquqlar agentligi (FRA) tadqiqotiga ko‘ra, Yevropadagi ayollarning 22% jismoniy, 43% ruhiy tazyiqqa uchragan, oilaviy zo‘ravonlikning 60% dan ortig‘i huquq-tartibot organlariga yetib bormaydi — “yashirin zo‘ravonlik”. Bu raqamlar profilaktika inspektori faoliyatining ahamiyatini kuchaytiradi, chunki zo‘ravonliklarning katta qismi aynan erta bosqichda aniqlansa, og‘ir oqibatlarning oldi olinishi mumkin.

## 2. Xalqaro tajriba: samarali modellarning tahlili:

2.1. Ixtisoslashgan politsiya bo‘linmalari modeli, (Buyuk Britaniya, Kanada) Buyuk Britaniyada “Domestic Abuse Unit”lar tashkil etilgan bo‘lib, ular xavf darajasiga qarab oilalarni risk-grading tizimi bilan baholaydi, profilaktika inspektori kabi xodimlar psixologlar bilan bir jamoa bo‘lib ishlaydi, Multi Agency Risk Assessment Conference (MARAC)” orqali barcha sektorlar (sog‘liqni saqlash, ta’lim, mahalliy kengashlar) bilan bir vaqtda ishlaydi. Bu model zo‘ravonlik bilan bog‘liq o‘limlar sonini 30% gacha kamaytirishga yordam bergan.

2.2. AQSh tajribasi: GPS nazorati va himoya orderlari AQShning bir nechta shtatlarida zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar GPS nishoniga olinadi. Himoya buyrug‘ini buzgan shaxslarning joylashuvi real vaqt rejimida politsiya tomonidan kuzatiladi. Natija: himoya orderining buzilishi 45% ga kamaygan.

2.3. Skandinaviya modeli: “Zero tolerance” siyosati Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiyada oilaviy

zo‘ravonlik, davlatning xavfsizlikka tahdid soluvchi ijtimoiy muammo deb e’tirof etilganm, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan majburiy psixologik terapiya, profilaktika inspektorlari uchun oilaviy psixologiya, gender sotsiologiyasi, mediatsiya bo‘yicha 6–12 oyli trening dasturlari. Natija: 10 yil ichida zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoiy ishlar 27% ga kamaygan.

2.4. Lotin Amerikasi, diniy va madaniy yondashuvlar Kolumbiyada olib borilgan tadqiqotlar (2023–2024) diniy guruhlar o‘rtasidagi raqobat ijtimoiy xizmatlar yaxshilanishiga olib kelganini va oilaviy zo‘ravonlik darajasini pasaytirganini ko‘rsatgan. Bu “ijtimoiy kapitalning ortishi modeli” deyiladi.

2.5. Isroil tajribasi: xavfli oilalarni matematik modellashtirish Isroilda zo‘ravonlikni bashorat qilish uchun AI-risk modeli ishlab chiqilgan, oilaning 50 dan ortiq parametrini tahlil qiladi, profilaktika inspektori uchun “xavf sabablarini” avtomatik aniqlaydi, 2023-yilda xavf guruhidagi oilalarni aniqlash samaradorligi 68% ga oshgan.

## 3. Takomillashtirish yo‘nalishlari: xalqaro tajribaga asoslangan ilmiy takliflar

4.1. Raqamli profilaktika tizimini yaratish, “Elektron oilaviy profil” — har bir xavfli oilaning psixologik, iqtisodiy va ijtimoiy holatini raqamli tarzda yuritish. AI-asosidagi xavf aniqlash tizimini joriy etish (Isroil modeli asosida).

4.2. Inspektorlarning ilmiy-psixologik malakasini oshirish, Oilaviy terapiya, konfliktologiya, gender sotsiologiyasi bo‘yicha maxsus sertifikat kurslari. Har 2 yilda bir marotaba qayta attestatsiya.

4.3. Xalqaro MARAC modelini joriy etish, Mahalla — tibbiyot — ta’lim — ichki ishlar — psixologlar integratsiyalashgan “bir darcha tizimi”.

4.4. Himoya mexanizmlarini kuchaytirish, GPS nazorati (AQSh tajribasi). Zo‘ravon shaxslar uchun majburiy psixokorreksiya (Skandinaviya modeli).

4.5. Jamoatchilik asosidagi profilaktika, Kolumbiya modeliga o‘xshash “ijtimoiy kapitalni oshirish strategiyasi”: diniy ulamolar, masjid imomlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlik.

### **Xulosa**

Oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorlarining o‘rni muhim hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda samarali natijalarga erishish uchun davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mahallaning o‘zaro hamkorligi zarur. Profilaktika inspektorlarining kasbiy salohiyatini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish oiladagi zo‘ravonlik holatlarining kamayishiga xizmat qiladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish — bu birgina politsiya yoki profilaktika inspektori faoliyati bilan cheklanmaydigan, balki ko‘p tarmoqli integratsiyalashgan tizimdir. Profilaktika inspektorining roli shunchaki nazorat emas, balki: ijtimoiy diagnostika, psixologik profilaktika, xavf indikatorlarini baholash, jamiyatni ogoh qilish himoya tizimini ishga solish kabi ko‘p funksiyani o‘z ichiga olishi lozim.

Xalqaro tajribalar ko‘rsatadiki, samarali natijalarga erishish uchun profilaktika inspektorlarida yuqori malaka, zamonaviy texnologiyalar, tarmoqlararo hamkorlik va huquqiy himoya mexanizmlarining mustahkamligi zarur.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga oid farmon va qarorlari.
5. BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (CEDAW).
6. BMTning oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha tavsiyalari.
7. Buyuk Britaniya Home Office materiallari.
8. AQSH Department of Justice oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha metodik tavsiyalari.
9. Germaniya Federal Family Affairs vazirligi materiallari.
10. Kanada Public Safety Agency oilaviy zo‘ravonlik profilaktikasiga oid hisobotlari.